



ERTA BOLALIK DAVRIDA IJTIMOIIY-EMOTSIONAL VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISH.

Akmalova Bahora Akmal qizi

*KDPI pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada erta bolalik davrida bolalarning ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanish jarayonlari, ularning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda pedagogik yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqotda bolaning hissiy barqarorlikni egallashi, o'z-o'zini boshqarish, empatiya, muloqot ko'nikmalari, shaxslararo munosabatlar kabi asosiy kompetensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, oilaviy muhit, tarbiyachi-bola o'zaro munosabatlari, o'yin faoliyati va ta'limiy jarayonning rivojlanishga ko'rsatadigan ta'siri ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: erta bolalik davri, ijtimoiy rivojlanish, emotsional rivojlanish, psixologik rivojlanish, emotsional barqarorlik, empatiya, muloqot ko'nikmalari, ijtimoiy moslashuv, o'yin faoliyati, shaxslararo munosabatlar, oilaviy muhit, ijobiy tarbiya, emotsional qo'llab-quvvatlash, shaxs rivojlanishi.

Abstract. This article highlights the processes of social-emotional and psychological development of children in early childhood, the factors influencing their formation, and relevant pedagogical approaches. The study analyzes key competencies such as emotional stability, self-regulation, empathy, communication skills, and interpersonal relationships. It also demonstrates the impact of the family environment, teacher-child interactions, play activities, and the educational process on child development.

Keywords: early childhood, social development, emotional development, psychological development, emotional stability, empathy, communication skills, social adaptation, play activity, interpersonal relationships, family environment, positive parenting, emotional support, child development.

Аннотация. В данной статье освещаются процессы социально-эмоционального и психологического развития детей раннего возраста, факторы, влияющие на их формирование, а также педагогические подходы. В исследовании анализируются ключевые компетенции, такие как эмоциональная устойчивость, саморегуляция, эмпатия, коммуникативные навыки и межличностные отношения. Также показано влияние семейной среды, взаимодействия воспитателя и ребёнка, игровой деятельности и образовательного процесса на развитие ребёнка.

Ключевые слова: раннее детство, социальное развитие, эмоциональное развитие, психологическое развитие, эмоциональная устойчивость, эмпатия, коммуникативные навыки, социальная адаптация, игровая деятельность, межличностные отношения, семейная среда, позитивное воспитание, эмоциональная поддержка, развитие личности ребёнка.



Kirish. Inson psixikasi, uning rivojlanishi va turli yosh davrlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar psixologiyaning eng muhim va qiziqarli sohalaridan biridir. Psixologik rivojlanish, bolalik va o'smirlik davrlarida insonning psixologik salohiyatini shakllantiradi. Bu jarayon nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy omillarga ham bog'liqdir. Erta bolalik va o'smirlik davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan bo'lib, bu davrda psixologik o'zgarishlar tez va intensiv ravishda yuz beradi. Rolli o'yinlar bolaga "katta hayot"ni boshqarish, o'qituvchi, shifokor, onaxon kabi rollarni sinab ko'rish imkonini beradi.

Ta'limiy jarayonning ta'siri:

Ilg'or pedagogik texnologiyalar bolalarning, emotsional intellektini, kommunikativ ko'nikmalarini, moslashuvchan fikrlashini, ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi. Muloqot o'yinlari, guruh mashg'ulotlar, amaliy loyihalar va interfaol metodlar bu jarayonni samarali qiladi.

Hissiy barqarorlikni shakllantirish

Hissiy barqarorlik — bolaning stress, qo'rquv yoki tashvish holatlarida o'zini boshqara olish qobiliyatidir. Buni shakllantirish uchun, nafas mashqlari, tinchlantiruvchi musiqalar, emotsiyalarni nomlash o'yinlari, "Men o'zimni qanday his qilyapman?" usuli kabi metodlar qo'llaniladi.

Empatiyani rivojlantirish

Empatiya — boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ularga javob qaytarish qobiliyati.

Empatiya bolada - mehribonlik, hamdardlik, yordam berishga intilish, ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Buning uchun ertak terapiyasi, rolli o'yinlar, muhokama mashg'ulotlari juda foydalidir.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish

Muloqot — bolaning ijtimoiy hayotga kirib borishida poydevor vazifasini bajaradi. Tarbiyaviy yondashuvlar quyidagilarga qaratiladi: gapni boshlash va davom ettirish, navbat kutish, tinglash madaniyati, tanishish, o'z fikrini aniq ifodalash.

Ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash- ijtimoiy moslashuv bolaning yangi muhitga tez moslasha olishi, jamoada faol bo'lishi va o'zi uchun qulay fazoni yaratish qobiliyatidir. Bu jarayon asosan: guruh o'yinlar, ijodiy mashg'ulotlar, jamoaviy topshiriqlar, qo'shma loyihalar yordamida shakllanadi.

Emotsional qo'llab-quvvatlash va ijobiy tarbiyaning roli.

Ijobiy tarbiya tamoyillari- Ijobiy tarbiya (positive parenting) bolaga, hurmat bilan munosabatda bo'lish, haddan tashqari jazolardan tiyilishi tushunishga harakat qilish, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. Bu yondashuv bolaning o'ziga ishonchini oshiradi va uning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi.

Bolalar psixologiyasini o'rganishda asosan, ularning qiziqishlari, rang tasvir muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, maktabda yoki bog'chada bolalar turli xil rangdagi o'yinchoqlar bilan o'ynashadi. Psixologiyada ushbu jarayon o'yin terapiyasi deb ataladi. Ushbu jarayon usul sifatida bolalarning psixologik jihatdan muammolarni hal qilishdagi qarashlar bilan





bog'liq. Yetti yoshdan maktabga qadam qo'yishadi. Maktab davrida bolalarning ijtimoiy emotsional rivojlanish va psixomotor rivojlanish bilan aloqador bo'ladi. Bu davrda bolalar maktabda o'zlariga do'st, o'rtoq tanlashi, bajargan vazifalari uchun a'lo baholar olishi, sinfdagilar bilan muloqot qobiliyati bevosita xis tuyg'ular bilan amalga oshiriladi. Mana shunday jarayonda refleks harakatlarining psixologiya bilan bog'liq ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab, atrofdagi insonlar ulardagi salbiy va ijobiy reflekslarning chegaralanmagan holatda amalga oshirilishidir. Bu esa psixomotor rivojlanish ya'ni harakatlar va miya o'rtasidagi bog'liqlik bilan bog'liqdir. Psixomotor rivojlanish ya'ni harakatlar va miya o'rtasidagi bog'liqlik bilan bog'liqdir.

Emotsional qo'llab-quvvatlashning ahamiyati- har bir bola, qabul qilinishni, tinglanishni, mehrni, himoyalanganlik hissini sezishga muhtoj. Tarbiyachi va ota-onaning emotsional qo'llab-quvvatlashi bolaning stress darajasini kamaytiradi, tashvish va qo'rquvlarni yengishga yordam beradi.

Xulosa. Erta bolalik davrida ijtimoiy, emotsional va psixologik rivojlanish — bola shaxsining kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu rivojlanish omillarining uyg'unligi, ya'ni oilaviy muhit, ta'limiy jarayon, tarbiyachi bilan munosabatlar va o'yin faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi bolalarning ijtimoiy intellektini, emotsional barqarorligini, mustaqilligini va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Pedagogik jarayonda ijobiy tarbiya, individual yondashuv, hissiy qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi bolalarda emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Inson psixikasining rivojlanishining boshida, ayniqsa, bolalik va o'smirlik davrlari psixologik jarayonlar uchun juda muhimdir. Bu davrda o'zgarishlar kognitiv, emotsional, va ijtimoiy sohalarida katta rol o'ynaydi. Ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning roli bu rivojlanish jarayonini to'g'ri yo'naltirishda juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonova Q., Xodjayeva N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
2. Erikson, E. Childhood and Society. – New York: W.W. Norton & Company, 1993.
3. G'oziev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
4. Karimova V.M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
5. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. Zokirova R., Qosimova M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.

